

O'zbekiston Prezidenti Rossiya elchisini qabul qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17 mart kuni Rossiya Federatsiyasining Favqulodda va Muxtor Elchisi Vladimir Tyurdenevni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasi yakunlangani munosabati bilan qabul qildi.

Davlatimiz rahbari Rossiyaning O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonasiga 11 yildan ortiq vaqt mobaynida rahbarlik qilib kelayotgan elchi Vladimir Tyurdenevning ikki tomonlama do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlash, mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga qo'shgan shaxsiy hissasini alohida qayd etdi.

Davlatimiz rahbari elchi Vladimir Tyurdenevning O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlash, ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga qo'shgan shaxsiy hissasini alohida qayd etdi.

Elchining faol ishtiroki va ko'magida turli darajalarda tizimli muloqot va samarali aloqalar yo'lga qo'yilgani ta'kidlandi. Savdo-iqtisodiy sohada sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, keyingi yillarda o'zaro savdo hajmi oshdi, yirik investitsiya loyihalari ilgari surildi va amalga oshirilmoqda, O'zbekiston va Rossiya hududlari va ishbilarmon doiralarning iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridagi kooperatsiyasi kuchaydi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniy-gumanitar almashinuv borasida muhim dasturlar amalga oshirilmoqda. bugungi kunda mamlakatimizda Rossiya yetakchi oliy ta'lim muassasalarining 12 ta filiali faoliyat yuritmoqda.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Prezidenti Rossiya elchisini davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish va har tomonlama aloqalarni rivojlantirishga qo'shgan katta hissasi, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalari va o'zaro anglashuvni mustahkamlashdagi faol ishtiroki uchun O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorlig'i bilan taqdirladi.

Vladimir Tyurdenev uning diplomatik faoliyatiga berilgan yuksak baho, shuningdek, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi keng ko'lamlı hamkorlikni rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e'tibor uchun davlatimiz rahbariga chuqur minnatdorlik bildirdi.



